

TOG‘AY MUROD ROMANLARIDA MILLIY TAFAKKUR VA
LINGVOPOETIK TASVIR: “OTAMDAN QOLGAN DALALAR” HAMDA
“BU DUNYODA O‘LIB BO‘LMAYDI” ASARLARI MISOLIDA

Niyozmetov Bunyodbek Qadamboy o‘g‘li
Xorazm Ma‘mun akademiyasi tayanch doktoranti
bunyodbekniyozmuhammad27@gmail.com
+998947120210

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek adabiyotining yirik namoyandasi Tog‘ay Murod romanlari — “*Otamdan qolgan dalalar*” va “*Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi*” asarlarining lingvopoetik hamda antroposentrik xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida yozuvchi qo‘llagan metaforik birliklar, dialektizmlar, pragmatik vositalar, sintaktik parallelizmlar va milliy-madaniy konseptlarning badiiy-estetik funksiyasi ochib berildi. Asarlardan olingan matn parchalarining sahifa raqamlari asosida lingvistik tahlil amalga oshirildi. Tadqiqot natijalari Tog‘ay Murod nasrida til milliy tafakkur va tarixiy xotirani ifodalovchi murakkab poetik tizim ekanligini ko‘rsatadi.

Abstract. This article analyzes the linguopoetic and anthropocentric features of the novels *Fields Left by My Father (Otamdan qolgan dalalar)* and *One Cannot Die in This World (Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi)* by the prominent Uzbek writer Tog‘ay Murod. The study examines the artistic and aesthetic functions of metaphorical expressions, dialectal units, pragmatic devices, syntactic parallelisms, and national-cultural concepts used in the writer’s prose. Linguistic analysis was carried out based on textual fragments selected directly from the novels, with detailed reference to page numbers. The research reveals that language in Tog‘ay Murod’s works functions not merely as a communicative tool, but as a complex poetic system reflecting national consciousness, historical memory, and the spiritual world of the Uzbek people. The findings demonstrate that the author skillfully combines folk speech, emotional expressiveness, and symbolic imagery to create a unique artistic discourse. Furthermore, the article highlights the significance of anthropocentric and linguopoetic approaches in interpreting the semantic and stylistic layers of modern Uzbek prose.

Kalit so‘zlar: lingvopoetika, antroposentrizm, pragmalingvistika, diskurs, konsept, dialektizm, badiiy til, milliy tafakkur.

Keywords: linguopoetics, anthropocentrism, pragmalinguistics, discourse, concept, dialectism, artistic language, national consciousness

Kirish

XX asr o‘zbek nasrida milliy ruh va tarixiy tafakkurni o‘ziga xos poetik til orqali

ifodalagan ijodkorlar orasida Tog‘ay Murod alohida o‘rin tutadi. Yozuvchi asarlarida xalqning ruhiyati, tarixiy fojialari, mustamlaka davridagi iztiroblari hamda inson va tuproq munosabati til vositalari orqali chuqur badiiy talqin qilinadi. Ayniqsa, *Otamdan qolgan dalalar* hamda *Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi* romanlari yozuvchining lingvopoetik mahoratini yaqqol namoyon etuvchi asarlar hisoblanadi. Ushbu romanlarda til oddiy kommunikativ vosita emas, balki xalqning tarixiy xotirasi va milliy ongini aks ettiruvchi poetik hodisa darajasiga ko‘tarilgan. Dilmurod Quronov yozuvchi uslubini baholar ekan, “Tog‘ay Murod nasrida xalqning ichki ovozi yashaydi” deya ta’kidlaydi. M.Qosimovanning fikricha, “Tog‘ay Murod badiiy nutqida individual uslub va xalqona ohang sintezi yuzaga kelgan”¹. Bu holat yozuvchi romanlaridagi dialektal birliklar, metaforik ifodalar va sintaktik konstruksiyalarda ayniqsa yaqqol seziladi. Zamonaviy tilshunoslikda antroposentrik paradigma tilni inson omili bilan bog‘liq holda o‘rganishni asosiy metodologik yo‘nalish sifatida qaraydi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, Tog‘ay Murod asarlari o‘zbek xalqining mentaliteti, dunyoqarashi va etnik xotirasini o‘rganishda muhim lingvistik manba vazifasini bajaradi. Mazkur maqolaning maqsadi — Tog‘ay Murodning yuqoridagi ikki romanida qo‘llangan lingvistik vositalarning badiiy-estetik funksiyasini aniqlash hamda ularning antroposentrik mohiyatini ochib berishdan iborat.

Metodologiya

Mazkur tadqiqotning obyektni taniqli o‘zbek yozuvchisi Tog‘ay Murodning *Otamdan qolgan dalalar* (1994) va *Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi* (2001) romanlari tashkil etadi. Ushbu asarlar yozuvchining badiiy-estetik tizimini, milliy dunyoqarashini, tarixiy xotira va inson hamda tuproq o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni eng yorqin ifodalaganligi sababli tadqiqot obyekti sifatida tanlab olindi.

Tadqiqotda zamonaviy tilshunoslik va adabiyotshunoslikning bir qator ilmiy yondashuvlarini uyg‘unlashtirgan kompleks sifat metodologiyasidan foydalanildi. Bu esa matnlarning lingvopoetik tuzilishini har tomonlama tahlil qilish imkonini berdi.

Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- **Lingvopoetik tahlil** — til birliklarining estetik funksiyasini hamda ularning badiiy obraz va emotsional ta’sir yaratishdagi rolini aniqlash maqsadida;
- **Semantik tahlil** — “tuproq/yer/dala”, “non”, “ketmon” kabi asosiy birliklarning konseptual mazmuni va semantik transformatsiyalarini ochib berish uchun;
- **Pragmalingvistik yondashuv** — qahramonlar nutqi va muallif narrativ strategiyasida qo‘llangan til vositalarining kommunikativ-pragmatik ta’sirini o‘rganish uchun;

1. Qosimova M. *Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari*. — Buxoro, 2021.

- **Diskurs tahlili** — asarlardagi mustamlakachilik diskursi hamda ocharchilik diskursini ijtimoiy-madaniy va mafkuraviy konstruksiya sifatida tadqiq etish uchun;
- **Komponent tahlil** — murakkab metaforik va konseptual strukturalarni semantik komponentlarga ajratib o‘rganish uchun;
- **Antroposentrik metod** — tilni inson tafakkuri, milliy mentalitet va individual psixologik kechinmalarni ifodalovchi vosita sifatida tadqiq qilish maqsadida qo‘llanildi.

Tadqiqotning nazariy-metodologik asosini o‘zbek tilshunosligi va adabiyotshunosligining yetakchi vakillari tomonidan yaratilgan lingvopoetika, uslubshunoslik hamda matn tilshunosligiga oid fundamental ilmiy qarashlar tashkil etdi. Jumladan, Dilmurod Quronovning badiiy nutqda milliy ruh masalasiga oid fikrlari, Naim Karimovning xalqona uslubning estetik tabiati haqidagi qarashlari, Qozoqboy Yo‘ldoshevning so‘zning poetik funksiyasi borasidagi ilmiy xulosalari hamda M. Qosimovning individual muallif uslubiga oid tadqiqotlari metodologik asos sifatida keng qo‘llanildi. Shuningdek, tadqiqotda jahon tilshunosligida ishlab chiqilgan antroposentrizm, konseptual metafora nazariyasi va diskurs tahliliga oid umumiy nazariy konsepsiyalarga ham murojaat qilindi.

Natijalar

1. “Tuproq” konseptining lingvopoetik mohiyati

Tog‘ay Murod romanlarida “yer”, “dala”, “tuproq” tushunchalari oddiy predmet nomi emas, balki milliy mavjudlik ramzi sifatida qo‘llanadi.

“*Otamdan qolgan dalalar*” romanining dastlabki sahifalaridayoq dehqon va yer o‘rtasidagi metafizik bog‘liqlik ifodalanadi:

“Бобомизда нима бўлади — кетмон бўлади. Кетмон эмас — бир балои бад бўлади!” (1-bet)

Mazkur o‘rinda yozuvchi “ketmon” leksemasini hiperbolik tasvir vositasida oddiy mehnat quroli darajasidan chiqarib, dehqon qismati va milliy mehnat timsoli sifatida poetiklashtiradi. Natijada ketmon obrazi xalqning tarixiy taqdiri bilan semantik jihatdan uyg‘unlashadi.

Shuningdek:

“Худони ёдлаб-ёдлаб кетмон чопади.”(2-bet) jumlasida dehqon mehnati diniy-ma’naviy qadriyat bilan uyg‘unlashtiriladi. Bu yerda mehnat ibodat darajasiga ko‘tarilgan.

Dilmurod Quronov bu haqda shunday yozadi:

“Tog‘ay Murod qahramonlari uchun yer — tiriklik manbai emas, milliy sha’n va tarixiy xotira timsolidir”².

2. Quronov D. *Tog‘ay Murod xirgoyilari*. — Toshkent: Ziyoyi, 2010.

Roman davomida biz dala obrazini ham insoniylashtirilganiga ham guvohi bo‘lamiz. Ayniqsa, rus bosqinchilarining dala ichida yalang‘och yotishi tasviri milliy ruhiyatga tahqir sifatida ifodalanadi: “Даламда муслмон оёқ босар ер қолмади”(5-bet). Bu jumla oddiy shikoyat emas, balki mustamlakachilikka qarshi ruhiy norozilikning lingvistik ifodasidir.

2. Mustamlaka diskursining badiiy talqini.

Romanlarda mustamlakachilik til vositalari orqali kuchli diskurs sifatida beriladi. “*Otamdan qolgan dalalar*” romanida rus bosqinchilari “Oqpodsho” nomi bilan ifodalanadi: “Оқподшо олабўжи бўлиб кўринади!”(3-bet)

“*Olabo‘ji*” metaforasi orqali bosqinchi obrazining qo‘rqinchli va begona tabiati ochiladi. Yozuvchi bosqinchilarni faqat tashqi dushman sifatida emas, balki milliy qadriyatlarni yemiruvchi kuch sifatida tasvirlaydi. Masalan: “Оқподшо қип-яланғоч ётади!”(5-bet) Mazkur jumla sharqona axloq me‘yorlari bilan g‘arbona madaniyat to‘qnashuvini ifodalaydi. Bu borada ustoz Qozoqboy Yo‘ldoshev ham yozuvchi haqida shunday fikr bildirib o‘tgan: “*Tog‘ay Murod nasrida mustamlakachilik eng avvalo ma‘naviy va ruhiy bosqin sifatida aks etadi*”³.

Asarda, shuningdek, general Skobelev nutqida qo‘llangan “*Sart-sobakalar!*” birliklari mustamlakachilik mafkurasining til birliklari orqali ochiq ifodalangan. Mazkur haqoratli murojaat shakli pragmatik nuqtayi nazardan nafaqat salbiy emotsional-ekspressiv munosabatni, balki imperiyaviy hukmron mafkuraning til orqali legitimlashtirilishini ham ifodalaydi. Xususan, “sart” etnonimi bilan “sobaka” leksemasining bir sintaktik konstruksiyada qo‘llanishi mahalliy xalqning insoniy maqomini kamsitish, uni biologik-instinktiv mavjudot darajasiga tushirish kabi diskriminativ semantikani yuzaga chiqaradi. Natijada til kommunikativ vosita bo‘lish funksiyasidan chiqib, psixologik bosim va mafkuraviy zo‘ravonlik instrumentiga aylanadi. Ushbu nutqiy birlik orqali yozuvchi mustamlakachilik siyosatining asl mohiyatini — milliy mafkurani tahqirlash, xalqning ijtimoiy-qadriyat tizimini yemirish hamda “*mustamlaka subyekti*”ni ruhiy jihatdan sindirish strategiyasini badiiy ifodalaydi. Diskursiv jihatdan qaralganda, mazkur leksik birlik “hukmron markaz” va “bo‘ysundirilgan periferia” oppozitsiyasini shakllantirib, kolonial ideologiyaning til sathidagi realizatsiyasini namoyon etadi. Shu tariqa, Tog‘ay Murod birgina haqoratli replika orqali mustamlaka tuzumining nafaqat siyosiy, balki lingvomadaniy va antropologik zulm mexanizmini ham ochib beradi.

3. Ocharchilik tasvirida pragmatik drammatizm

Tog‘ay Murodning yana bir “*Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi*” romanida ocharchilik manzaralari asarning eng keskin ijtimoiy-falsafiy qatlamlaridan birini tashkil etadi. “Ота ўз ўғлини бир зоғора нонга алмашди”(3-bet) jumlasini

3. Yo‘ldoshev Q. *So‘z yo‘lqini*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.

ocharchilikning insoniy qadriyatlar tizimini yemiruvchi darajaga yetganini nihoyatda ixcham, ammo semantik jihatdan kuchli shaklda ifodalaydi. Mazkur gap sodda sintaktik qurilishga ega bo'lsa-da, uning mazmuniy yuki juda og'ir: "ota" va "o'g'il" leksemalari oilaviy mehr, nasl davomiyligi, otalik mas'uliyati kabi ijobiy semantik maydonni hosil qilsa, "zog'ora non" birikmasi tirik qolish instinkti, ochlik bosimi va moddiy ehtiyoj semantikasini yuzaga chiqaradi. Ushbu ikki semantik qutbning bir gap doirasida to'qnashuvi fojiviy kontrastni hosil qiladi. Pragmalingvistik nuqtayi nazardan, jumlada bevosita izoh, muallif munosabati yoki emotsional baho beruvchi birliklar qo'llanmagan. Aynan shu neytral bayon shakli dramatik ta'sirni kuchaytiradi: muallif fojiani izohlab bermaydi, balki fakt sifatida taqdim etadi. Natijada o'quvchi voqeaning dahshatini tayyor baho orqali emas, matnning ichki semantik ziddiyati orqali anglaydi. Lingvopoetik jihatdan "bir zog'ora non" birikmasi oddiy oziq-ovqat nomi bo'lishdan chiqib, ocharchilik sharoitida inson hayoti, qarindoshlik rishtalari va axloqiy mezonlarning qadrsizlanishini ifodalovchi ramziy birlikka aylanadi. Bu yerda non tiriklik belgisi bo'lish bilan birga, insoniy munosabatlarning yemirilish mezonini sifatida ham namoyon bo'ladi. Demak, yozuvchi qisqa sintaktik konstruktsiya orqali katta tarixiy-ijtimoiy fojiani, ya'ni ochlik tufayli insonning tabiiy mehr-muhabbat va axloqiy qadriyatlardan begonalashuv jarayonini badiiy umumlashtiradi.

Yozuvchi dramatismni oshirish uchun takror va parallel konstruktsiyalardan foydalanadi:

“Нон чучук бўлди. Нон ширин бўлди.”

Bu yerda antonimik semantika yuzaga keladi. Oddiy nonning qadri favqulodda darajaga chiqadi. Ayniqsa quyidagi parcha kuchli pragmatik ta'sirga ega: “— Эна, но-он...” (4-bet). Bolaning cho'zib aytilgan "non" so'zi ochlikning ruhiy dahshatini ifodalaydi.

Naim Karimovning fikricha: “Tog'ay Murod dramatik ta'sirni sun'iy tasvir bilan emas, minimal sintaktik vositalar yordamida yaratadi”⁴. Yozuvchi qisqa gaplar orqali emotsional taranglikni kuchaytiradi: “Зогорадан ушоқ-да қолмади!” Mazkur jumla ocharchilikning kulminatsion poetik ifodasidir.

4. Dialektizmlar va xalqona nutq

Tog'ay Murod asarlarining eng muhim lingvistik xususiyatlaridan biri xalqona nutq va dialektal birliklarning faol qo'llanishidir.

Masalan: “Тошканниям олибдимми-а?”

Bu gapdagi fonetik o'zgarishlar qahramon nutqining tabiiyligini ta'minlaydi.

Shuningdek: “Хе, эна...!” kabi emotsional undovlar xalq ruhiyatini jonli aks ettiradi. Shu o'rinda Naim Karimovning yozuvchi haqida fikrlariga to'xtalib o'tsak: “Xalqona ohang Tog'ay Murod nasrining asosiy estetik tayanchidir”⁵.

4. Karimov N. *Ijod sehri*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006.

5. Karimov N. *Ijod sehri*. — Toshkent: Ma'naviyat, 2006.

Yozuvchi dialoglarni sun'iy adabiy lashtirmaydi. Natijada matnda tabiiy kommunikativ muhit yuzaga keladi.

5. Sintaktik parallelizm va ritmik nasr

Tog'ay Murod nasrida takrorlar va parallel konstruksiyalar ritmik ohang hosil qiladi. Masalan "Otamdan qolgan dalalar" romanining 8-betida "Мўмин-мазлум мунғайиб-мунғайиб туради. Мўмин мазлум жовдираб-жовдираб туради" jumalari yozuvchi uslubidagi nasriy musiqiylikning yorqin namunasi hisoblanadi. Mazkur parchada sintaktik parallelizm, fonetik ritm va emotsional-ekspressiv intensivatsiya o'zaro uyg'un holda qo'llanilgan. Har ikki gapning bir xil sintaktik model asosida qurilishi matnda ritmik simmetriya hosil qilib, mazmunning ta'sir kuchini oshiradi. Ayniqsa, "МУНҒАЙИБ-МУНҒАЙИБ" hamda "ЖОВДИРАБ-ЖОВДИРАБ" shaklidagi takroriy fe'llar nafaqat harakatning davomiyligini, balki qahramonlarning ruhiy tushkunligi va ichki iztirobini ham kuchaytirib ifodalaydi. Fonopoetik jihatdan qaralganda, undosh va unlilar takrori matnda ohangdorlik hosil qilib, uni og'zaki epik nutqqa yaqinlashtiradi. Shu sababli yozuvchi nasrida sintaktik qurilish faqat grammatik vosita emas, balki psixoemotsional ta'sirni yuzaga chiqaruvchi poetik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Dilmurod Quronov aynan shu hodisani "nasriy musiqiylik"⁶ deb baholab, Tog'ay Murod uslubida xalq og'zaki ijodiga xos ritmik tafakkur kuchli ekanligini ta'kidlaydi. Natijada matn o'quvchi ongida oddiy voqea bayoni emas, balki hissiy-estetik rezonans uyg'otuvchi badiiy diskurs sifatida qabul qilinadi. Shuningdek: "Қонқора қақшайди." kabi fonosemantik birliklar matnga akustik ta'sir beradi.

Muhokama

Amalga oshirilgan lingvopoetik va antroposentrik tahlillar shuni ko'rsatadiki, Tog'ay Murod romanlarida til oddiy kommunikativ vosita vazifasini bajarish bilan cheklanmaydi. Aksincha, u milliy tarixiy xotirani saqlovchi, xalqning kollektiv ongini ifodalovchi hamda ijtimoiy-madaniy tajribani badiiy shaklda uzatuvchi murakkab estetik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi matnlarida har bir leksik birlik, metaforik konstruksiya yoki sintaktik model muallifning individual poetik tafakkuri bilan uzviy bog'langan holda qo'llanadi.

Tahlillar davomida aniqlandiki, Tog'ay Murod nasrida metafora faqat badiiy bezak vositasi emas, balki tarixiy ong va milliy tafakkurni verbal shaklda modellashtiruvchi konseptual mexanizm vazifasini bajaradi. Xususan, "yer", "dala", "tuproq", "ketmon", "non" kabi birliklar o'zining denotativ ma'nosidan chiqib, xalqning tarixiy qismati, ruhiy iztiroblari va milliy mavjudligini ifodalovchi konseptual qatlamga ko'tariladi. Shu jihatdan yozuvchi metaforalari individual tasvir mahsuli bo'lish bilan birga, kollektiv madaniy xotiraning lingvistik reprezentatsiyasi sifatida ham ahamiyat kasb etadi. Yozuvchining romanlarda faol qo'llangan dialektal birliklar esa lingvomadaniy identifikatsiya vositasi sifatida xizmat qiladi. Surxon vohasi shevasiga xos fonetik va

⁶ Quronov D. *Tog'ay Murod xirgoyilari*. — Toshkent: Ziyo, 2010

leksik elementlar qahramon nutqining tabiiylikini ta'minlash bilan bir qatorda, milliy mentalitet va hududiy koloritni ham ifodalaydi. Natijada matnda sun'iy adabiy lashtirilgan nutq emas, balki xalqning jonli kommunikativ muhiti aks etadi. Bu holat yozuvchi uslubining realizm darajasini kuchaytiradi hamda o'quvchini badiiy voqelik ichiga chuqurroq olib kiradi. Sintaktik parallelizm va takroriy konstruksiyalar Tog'ay Murod nasrining eng muhim uslubiy belgilaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Yozuvchi ko'pincha qisqa, ritmik va parallel sintaktik birliklar orqali kuchli emotsional taranglik hosil qiladi. Ayniqsa, ocharchilik, zo'ravonlik yoki ruhiy iztirob tasvirlangan sahnalarda takrorlar dramatik intensifikatsiya vositasiga aylanadi. Shu sababli yozuvchi nasrida sintaktik qurilish faqat grammatik struktura emas, balki emotsional-estetik ta'sirni yuzaga keltiruvchi poetik mexanizm sifatida ishlaydi.

Tahlillar shuni ham ko'rsatadiki, yozuvchi o'zbek xalqining tarixiy fojialarini oddiy narrativ bayon orqali emas, balki yaxlit lingvopoetik tizim vositasida ifodalaydi. Xususan, ocharchilik, mustamlakachilik, ruhiy sindirish, milliy qadriyatlarning yemirilishi hamda insonning tuproqdan begonalashuvi kabi motivlar til birliklari orqali chuqur estetiklashtirilgan holda tasvirlanadi. Bunday estetiklashtirish jarayonida til tarixiy voqelikni qayta aks ettirish vositasi emas, balki uni emotsional va falsafiy jihatdan qayta talqin qiluvchi poetik makonga aylanadi. Ayniqsa, mustamlakachilik diskursi romanlarda keskin pragmatik va ideologik xarakter kasb etadi. Bosqinchi obrazlari nutqida qo'llangan haqoratli birliklar, buyruq ohanglari va diskriminativ leksik vositalar orqali imperiyaviy mafkuraning lingvistik modeli yaratiladi. Shu tariqa, til hukmronlik va bo'ysundirish instrumentiga aylantiriladi. Muallif esa ushbu nutqiy konstruksiyalar orqali mustamlakachilikning nafaqat siyosiy, balki lingvomadaniy va antropologik mohiyatini ham ochib beradi. Romanlarning markaziy konseptual yadrosini inson va yer munosabati tashkil etadi. "Yer" obrazi Tog'ay Murod badiiy tafakkurida oddiy geografik makon emas, balki tarixiy xotira, milliy identitet va ruhiy mavjudlik timsoli sifatida talqin qilinadi. Insonning tuproq bilan uzviy bog'liqligi yozuvchi estetik qarashlarining asosiy falsafiy nuqtasini tashkil etadi. Shu bois yozuvchi asarlarida yerga munosabat insonning o'z tarixiga, millatiga va ma'naviy ildizlariga bo'lgan munosabati bilan parallel ravishda ifodalanadi.

Mazkur jihatlar Tog'ay Murod nasrining antroposentrik xarakterini yaqqol namoyon etadi. Chunki yozuvchi tilni insonning ichki dunyosi, milliy tafakkuri va kollektiv ruhiy tajribasini ifodalovchi markaziy vosita sifatida qo'llaydi. Natijada badiiy matn faqat estetik hodisa emas, balki xalqning tarixiy ongini aks ettiruvchi lingvomadaniy fenomen sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa

Amalga oshirilgan tadqiqot natijalari Tog'ay Murod romanlarida tilning oddiy kommunikativ vosita emas, balki milliy tafakkur, tarixiy xotira va xalqning kollektiv ruhiy tajribasini ifodalovchi murakkab lingvopoetik tizim sifatida namoyon bo'lishini

ko‘rsatdi. Tahlillar davomida dialektal birliklarning qahramon xarakterini individuallashtirish va milliy kolorit yaratishdagi funksiyasi, metafora hamda sintaktik parallelizmlarning esa matnning emotsional-estetik ta‘sir kuchini oshirishdagi o‘rni aniqlandi. Shuningdek, ocharchilik va mustamlakachilik diskursi lingvopoetik vositalar orqali chuqur drammatizm va pragmatik intensivlik bilan ifodalanganligi kuzatildi. Tadqiqot natijalari antroposentrik yondashuvning Tog‘ay Murod badiiy olamini o‘rganishda samarali metodologik asos ekanligini tasdiqlaydi. Kelgusida yozuvchi nasrini kognitiv tilshunoslik, korpus lingvistikasi hamda diskursiv pragmatika asosida tadqiq etish muhim ilmiy xulosalarga olib kelishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Qosimova M. *Badiiy nutq individualligining lingvistik xususiyatlari*. — Buxoro, 2021.
2. Quronov D. *Tog‘ay Murod xirgoyilari*. — Toshkent: Ziyo, 2010.
3. Yo‘ldoshev Q. *So‘z yolqini*. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2018.
4. Karimov N. *Ijod sehri*. — Toshkent: Ma‘naviyat, 2006.
5. Tog‘ay Murod. *Otamdan qolgan dalalar*. — Toshkent: Sharq, 1994.
6. Tog‘ay Murod. *Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi*. — Toshkent: Sharq, 2001.
7. “Tog‘ay Murod asarlarining til xususiyatlari” // *Interpretation and Researches*. — 2023. — №4. — B. 112–118.
8. “Tog‘ay Murod asarlarida qo‘llanilgan leksik birliklar” // *Zenodo Scientific Publications*. — 2024.